

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

I.Toirov	
Texnosivilizatsiya jarayonining ijtimoiy-falsafiy talqini	109
B.Mirzaraximov	
Turizmning axloqiy-estetik mohiyatini tadqiq etishga oid metodologik yondashuvlar	117
M.T.Voxidova	
Xondamir asarlarida axloq va adolat g'oyalarining falsafiy talqini	123
D.E.Normatova	
IX-XII asrlarda o'rta osiyoda ilmiy-axloqiy tafakkur rivoji	127
B.X.Tolipov	
Innovatsion iqtisodiy raqobat muhitining yoshlar iqtisodiy faolligiga ta'siri	131
A.A.Salmonov	
Inklyuziv jamiyatning ijtimoiy falsafiy mazmuni	135
X.X.Yuldashxodjayev	
Musoxon Dahbidiy merosida davlat boshqaruvi va ma'naviy etakchilik hamda ijtimoiy mas'uliyatning zamonaviy talqini	140
G.I.Hashimova	
Harbiy ijtimoiy ish – davlat va fuqarolik institutlarining kontseptual-nazariy, siyosiy-huquqiy faoliyati tizimi sifatida	144
K.Shadmanov	
Literary and rhetorical traditions of latin and greek languages on the formation of english philosophical literature	149
A.A.Mo'ydinov	
Ma'naviy amaliyot kategoriyasining ijtimoiy-falsafiy talqini	153
A.A.Sayitxonov	
Tadbirkorlik faoliyatida innovatsion usullarning zaruriyati	159
G.M.Bozorova	
Muhammad Sharif Jurjoniyl ilmiy merosi va uning inson tafakkuri rivojidagi falsafiy ahamiyati	163
D.A.Sobirov	
Inson va mehnat: falsafiy tafakkur tarixida izlanish	168
Z.I.Narziev	
Aziziddin Nasafiyning tasavvuf ontologiyasi va ontologik konsepsiyalarga munosabati	177
X.M.Burxanov	
Raqamli jamiyatda axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmlari	183
S.Q.Qaxxorova	
Zamonaviy yoshlar ma'naviyati, axloqiy qadriyatlar va ruhiy barkamollikka yo'l	188
J.J.Shodiyev	
Inson ruhiy barkamolligi va jamiyat barqarorligini falsafiy yondashuv orqali rivojlantirish	192
N.U.Nurmatova	
Abdulkholiq G'ljduvoniylning "Maqomoti Yusuf Hamadoniyl" asari tahlili	196
A.A.Azimov	
Rudakiyl falsafiy qarashlarida ijtimoiy adolat va inson tarbiyasi	200
S.H.Pulatov	
Abu Homid al-G'azzoliyl va Ibn al-Arabiyl ilmiy merosining keyingi davrlarda tadqiqi va bugungi kundagi ahamiyati	206
E.X.Zoyirov	
Ya'qub Charxiyl ta'limotida borliq nazariyasi.	211
F.A.Qalandarova	
Ijtimoiy tabaqalanish evolyutsiyasi va uning zamonaviy jamiyatdagi yangi ko'rinishlari	217
S.R.Kutlimuratov	
Turkistonda jadidchilik harakatining shakllanishi	222
R.Sh.Bozorova	
Yangi O'zbekistonda ayollar intellektual va ma'naviy salohiyatini shakllantirishda ijtimoiy-falsafiy omillar, qadriyatlar va gender adolatning ahamiyati	226
Z.A.Ergasheva	
Yangi O'zbekistonda huquqiy ta'lim va axloqiy tarbiyani uyg'unlashtirish zarurati	230
Sh.F.Polvonov	



UO'K: 94(575.1):32

TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATINING SHAKLLANISHI

ФОРМИРОВАНИЕ ДЖАДИДСКОГО ДВИЖЕНИЯ В ТУРКЕСТАНЕ

THE FORMATION OF THE JADID MOVEMENT IN TURKESTAN

Kutlimuratov Sardorbek Rustamovich 

Urganch texnologiya universiteti, Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsent v.b., falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Annotatsiya

Maqolada XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkistonda jadidchilik harakatining shakllanish omillari, uning g'oyaviy asoslari, ma'rifiy va siyosiy yo'nalishlari, asosiy vakillari hamda harakatning jamiyat taraqqiyotiga ko'rsatgan ta'siri ilmiy jihatdan tahlil etiladi. Shuningdek, jadidchilikning mintaqaviy xususiyatlari, Turkiston mustamlakachiligi sharoitida vujudga kelish jarayoni va milliy uyg'onishdagi o'rni atroficha yoritiladi.

Аннотация

В статье научно анализируются факторы формирования джадидского движения в Туркестане в конце XIX – начале XX веков, его идеологические основы, образовательно-политические направления, основные представители и влияние движения на развитие общества. Также всесторонне освещаются региональные особенности джадидизма, процесс его становления в условиях колониального Туркестана и его роль в национальном возрождении.

Abstract

The article scientifically analyzes the factors of formation of the Jadid movement in Turkestan in the late 19th and early 20th centuries, its ideological foundations, educational and political directions, main representatives, and the impact of the movement on the development of society. It also comprehensively covers the regional characteristics of Jadidism, the process of its emergence in the conditions of colonial Turkestan, and its role in national revival.

Kalit so'zlar: Jadidchilik, usuli jadid, ma'rifatparvarlik, isloh, milliy uyg'onish, matbuot, maorif.

Ключевые слова: джадидизм, усулитский джадид, просвещение, реформа, национальное возрождение, печать, образование.

Key words: Jadidism, Usuli Jadid, Enlightenment, Reform, National Revival, Press, Education.

KIRISH

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar Sharq uyg'onishining yangi bosqichini yuzaga keltirdi. Mazkur davrda Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi kuchayib borar ekan, mahalliy jamiyat taraqqiyotining sekinligi, iqtisodiy va ma'naviy hayotning turg'unlashuvi, o'quv-ma'rifat tizimining eskirishi milliy ziyolilarni umumjamiyat islohoti haqidagi fikrlarga undadi. Ana shunday tarixiy sharoitda jadidchilik harakati shakllanib, mahalliy xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini uyg'otishga, zamonaviy ta'limni rivojlantirishga intilgan kuch sifatida namoyon bo'ldi[1].

Jadidchilik harakati Turkiston tarixida modernizatsiya jarayonining asosiy omillaridan biri sifatida jamiyatning ma'rifiy yangilanishini ta'minlashga xizmat qildi. Bu harakat o'zida milliy uyg'onish g'oyalarini mujassam etib, turkiy xalqlarning o'z taqdirini mustaqil hal qilish istagini kuchaytirdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Turkistonda jadidchilik harakati shakllanishiga bag'ishlangan ilmiy manbalar asosan tarixiy, siyosiy va madaniy jarayonlarni tahlil qiluvchi tadqiqotlardan iborat. Mirmuhsin Shermuhammedov, Fitrat, Behbudiy, Abdulla Avloniy kabi o'sha davr ma'rifatparvarlarining asarlarida jadidchilik g'oyalarining shakllanishi, ma'rifat targ'iboti va islohot zarurati yoritilgan. Zamonaviy tadqiqotchilar – Z. Muhammadjonov, A. Rajabov, S. Turdimov, A. Bennigsen, H. Broidi va boshqalarning izlanishlarida harakatning ijtimoiy-siyosiy omillari, maktab-islohoti, milliy uyg'onish g'oyalari, Rossiya imperiyasi siyosati ta'siri hamda jadidlarning Turkiston taraqqiyotidagi o'rni kompleks tarzda o'rganilgan. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, jadidchilik harakati ma'rifiy-siyosiy uyg'onish

FALSAFA

jarayonining markazida turgan, millatni yangilash va zamonaviylashtirishga qaratilgan tarixiy fenomen sifatida talqin qilinadi.

Mavzuni tadqiq etishda tarixiy-tahliliy metod asosiy o'rin egallab, jadidchilikning shakllanishiga ta'sir qilgan tarixiy jarayonlarni ketma-ketlikda ochib beradi. Komparativ tahlil usuli jadid maktablari va eski usuldagi ta'lim tizimi o'rtasidagi farqlarni aniqlashtirish imkonini beradi. Sotsiomadaniy yondashuv harakatning jamiyat ma'naviy hayotiga ko'rsatgan ta'sirini ochib, jadidlarning ma'rifiy faoliyatini ijtimoiy kontekstda tadqiq etishga xizmat qiladi. Biografik metod esa jadid etakchilarining hayoti, dunyoqarashi va faoliyati orqali harakatning ichki dinamikasini yoritadi. Shuningdek, manbashunoslik usuli arxiv materiallari, matbuot nashrlari va jadidlar merosini ilmiy asosda tahlil qilishga imkon yaratadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bizga ma'lumki jadidchilik harakatining shakllanishiga olib kelgan tarixiy omillar mavjud bo'lib, bu omillar Turkiston jadidchiligining shakllanishiga etarlicha ta'sir ko'rsatgan. Bularga quyidagilarni misol qilishimiz mumkin:

1) Mustamlaka siyosati va Turkiston jamiyatining inqirozi.

Rossiya imperiyasining XIX asr oxirida yani 1860-1880-yillardagi harbiy yurishlari natijasida Turkiston o'lkasi to'liq Rossiya mustamlakasiga aylantirildi. Mustamlakachilik siyosati mahalliy hukmron doiralarning imkoniyatini chekladi, iqtisodiy resurslarning markazga oqib ketishi, soliqlar yukining ortishi jamiyatda norozilik kayfiyatini kuchaytirdi[2]. Bu holat esa mahalliy ta'lim tizimiga ham kuchli ta'sir ko'rsatib, hududdagi maktab va madrasalar XIX asr oxiriga kelib zamonaviy fanlar, texnika, iqtisod va ijtimoiy-siyosiy bilimlardan chetda qolishiga sabab bo'ldi. Aholining aksariyati savodsiz bo'ldi.

2) Islom dunyosidagi islohotlar ta'siri.

Bilamizki Usmoniylar imperiyasi, Misr va Tatariston hududlarida ma'rifatchilik va modernizatsiya g'oyalarini keng tarqatgan. Jadid ma'rifatparvari va asoschisi Ismoil Gaspralining "Usuli jadid" yani "Yangi usul" maktablari Turkiston ziyolilariga ham kuchli ta'sir o'tkazgan. Ismoil Gasprali "Til bir, din bir, ish bir" shiori bilan barcha musulmon xalqlarini modern taraqqiyotga chaqirgan[3].

3) G'arb ilm-fani bilan tanishuv.

Bu davrga kelib Turkiston ziyolilari Peterburg, Qozon, Istanbul va Qrim ilmiy muhitlari bilan o'z aloqalarini kuchaytirgan sari zamonaviy fan va texnik taraqqiyotning afzalliklarini ham anglab etganlar. Bu esa mahalliy jamiyatni isloh qilish zarurati haqidagi fikrlarni kuchaytirgan.

4) Matbuotning rivojlanishi.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida gazeta-jurnallar paydo bo'la boshlagan. Bu davrda Turkiston jadidlarining "Taraqqiy", "Shuhrat", "Xurshid", "Sadoyi Turkiston" kabi gazetalari o'lkada jadid g'oyalarining tarqalishiga katta xizmat qilgan[4].

Bizga ma'lumki jadidchilik harakatining ma'rifiy yo'nalishlari ham mavjud bo'lib, jadidchilik harakatining markaziy bo'g'ini - ta'lim islohoti bo'lgan. Jadidlar avvalo xalqning savodini oshirish, yoshlarga zamonaviy bilimlar berish orqali jamiyatni uyg'otishni maqsad qilishgan. Bunda ular tomonidan asos solingan "Usuli jadid" maktablarining o'zni beqiyos hisoblanadi. Jadidlar usuli jadid maktablarida eski maktablarga nisbatan quyidagi yangiliklarni joriy qilishgan:

1. fonetik o'qitish usuli;
2. geografiya, matematika, tabiiyot, tarix kabi fanlarning kiritilishi;
3. sinf-dars tizimi;
4. darsliklar va yangi o'quv qo'llanmalarini yaratish;
5. qizlar ta'limiga e'tibor [5].

Jadid maktablari qisqa fursatda Samarqand, Buxoro, Farg'ona vodiysi, Xiva va Toshkentda keng yoyilgan. Jadidlar tomonidan o'quv jarayonlari uchun darslik va o'quv qo'llanmalari yaratilgan. Jadid mutafakkirlaridan Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Fitrat, Behbudiy singari ziyolilar yangi darsliklar yaratib, o'z xalqini ilm-fanga yaqinlashtirishga intilishgan. Behbudiyning "Risolai jadida", Avloniyning "Turkiy guliston yo xulq" kabi kitoblari ma'rifiy uyg'onishning muhim manbalariga aylangan [6]. Shuningdek, jadidlar jamiyat taraqqiyoti ayollarning ta'limsizligida turg'unlashmasligi lozimligini ham alohida ta'kidlaganlar. Munavvarqori va Avloniy ilk qizlar maktablarini tashkil etgan ilg'or ziyolilar sirasiga kiradi.

Ma'lumki jadidchilik harakatining ijtimoiy-siyosiy yo'nalishi ham mavjud bo'lib, bunda jadidlar jamiyat islomi g'oyalari ilgari surishgan. Jadidlar ta'limni isloh qilish bilan birga adolatli ijtimoiy tuzum, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish, iqtisodiy taraqqiyot, sud-huquq tizimini yangilash kabi o'zgarishlarni ham taklif etganlar [7].

Jadidlar matbuot orqali xalq ongida siyosiy fikr uyg'otish g'oyasini ham ilgari surganlar. Jadid matbuoti Turkiston jamiyatida siyosiy ongni yuksaltirish, o'lkada mustamlakachilikni tanqid qilish, milliy birdamlik g'oyalarini targ'ib qilish kabi vazifalarni bajarishgan. Jadidlarning "Najot", "Kengash", "Yurt" kabi gazetalarida mamlakatdagi milliy manfaatlar, iqtisodiy islohotlar, boshqaruv masalalari keng yoritilgan. Jadidlar Buxoro amirligi va Xiva xonligida islohotlar o'tkazishni taklif etishgan. 1917-1920-yillarda ushbu hududlarda jadidlar faol siyosiy kuchga aylanishib, konstitutsiyaviy monarxiya g'oyasini ilgari surganlar[8].

Jadidchilik harakatining asosiy vakillari va ularning faoliyati to'xtaladigan bo'lsak, Mahmudxo'ja Behbudiy o'zbek jadidchilik harakatining asoschilaridan biri hisoblanadi. U nafaqat ma'rifatchi, balki dramaturg, jurnalist, siyosiy arbob sifatida millatning uyg'onishiga xizmat qilgan. U o'zining "Padarkush" dramasi orqali jamiyatdagi muammolarini ochib bergan. Abdulla Avloniy esa pedagog, adib va ijtimoiy arbobdir. Avloniy o'zining "Bir yurtni yo'q qilmoq istasang, avvalo maktabini yo'q qil" degan mashhur g'oyasi bilan jamiyatda ma'rifatparvarlikning hal qiluvchi o'rnini alohida ta'kidlagan. Toshkentdagi jadid maktablari asoschilaridan hisoblanadi. Munavvarqori Abdurashidxonov Toshkent jadidlarining etakchisi hisoblanadi. Turkistondagi "Najot", "Kengash" nomli jadid gazetalar aynan Munavvarqori Abdurashidxonov tomonidan tashkil etilgan. Shuningdek, Munavvarqori jamiyatda qizlar ta'limining faol targ'ibotchilaridan hisoblanadi. Abdurauf Fitrat Buxoro jadidlarining peshqadamidir. Fitrat Istanbulda tahsil olib, Turkiston modernizatsiyasiga oid fundamental asarlar yozgan. U o'zining "Hind sayyohi", "Oila", "Rahbari najot" kabi asarlari orqali jamiyatda mustamlakachilikni tanqid qilgan. Shuningdek, Cho'lpon, Qodiriy, Botu, Sadridin Ayniy, Fayzulla Xo'jayev kabi ziyolilar ham jamiyatda ma'rifat, adabiyot, siyosat va davlat boshqaruvi sohalarida jadidchilik g'oyalarini rivojlantirishga o'zlarining hissalarini qo'shishgan.

Jadidchilik harakatini shakllanishi Turkiston taraqqiyotiga ham kuchli ta'sir qilgan. Bunda jadid maktablari qisqa davr mobaynida minglab yoshlarning savodini oshirgan. Yangi fanlar ta'lim jarayoniga joriy etilgan. Jadidchilik harakatini shakllanishi Turkistonda matbuot va adabiyot sohalariga ham ijobiy ta'sir qilgan. Adabiyotda yangi janrlar - drama, publitsistika, hikoya, roman rivojlangan. Turkistonda matbuot jamiyatni siyosiy jihatdan ongli qilishga xizmat qilgan.

Turkiston jadidlari modern fikr tarqalishiga ham e'tibor qaratganlar. Ular xalq ongida milliy uyg'onish, milliy o'zlikni anglash, taraqqiyot uchun ma'rifat, jamiyatda islohotlar zarurati g'oyalarini shakllantirganlar. Lekin 1930-yillar repressiyalari natijasida jadidlarning ko'pchiligi qatag'on qurboniga aylanishdi. Mamlakatimiz o'z mustaqilligiga erishganidan so'ng jadidlarning g'oyaviy ilmiy va badiiy merosi qayta tiklandi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Turkistonda jadidchilik harakati XIX asr oxiri - XX asr boshlarida mintaqada ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotining eng yirik va mazmunli modernizatsiya bosqichlaridan biri sifatida vujudga kelgan. Bu harakat nafaqat zamonaviy ta'lim tizimini shakllantirish, balki xalq ongini uyg'otish, eski mafkuraviy qoliplarni yangilash va jamiyatni rivojlanishning yangi bosqichiga olib chiqish yo'lida muhim o'rin tutdi. Jadidlar o'z faoliyatlari orqali ma'rifat, taraqqiyot, milliy o'zlikni anglash, siyosiy madaniyat va fuqarolik ongini shakllantirish jarayonlarini sezilarli darajada jadallashtirdilar.

Jadidchilik nafaqat maktab-islohot va madaniy uyg'onish bilan cheklanib qolmay, balki milliy mustaqillik g'oyalarining shakllanishi, millatni uyg'otish, jamiyatni zamonaviy tamoyillar asosida tashkil etish yo'lidagi yangicha qarashlarni ommalashtirdi. Harakat vakillarining publitsistik faoliyati, ijtimoiy tashabbuslari, teatr, matbuot, adabiyot va siyosiy hayotdagi islohotchi g'oyalari xalqning ongli ravishda o'z manfaatlarini anglashiga, jamiyatni isloh qilish zarurati haqida chuqur tasavvur shakllanishiga xizmat qildi.

Bugungi kunda ham jadidlar ilgari surgan yangilanish, ma'rifatparvarlik, vatanparvarlik va milliy taraqqiyot g'oyalari o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Aksincha, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ularning merosi zamonaviy islohotlarning ma'naviy-ma'rifiy poydevori sifatida e'tirof etilmoqda. Shuning uchun jadidchilik harakatining tarixiy mohiyatini o'rganish, uning maqsad va g'oyalarini chuqur anglash hozirgi taraqqiyot jarayonlarini ilmiy asosda tushunishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qosimov B. Jadidchilik: tarix va mohiyat. – Toshkent: 2000.
2. Abdurahmonov A. Turkiston mustamlaka davrida. – Toshkent: 1995.
3. Gasprinskiy I. Risolalar. – Qrim: 1906.
4. Rajabov R. O'zbek matbuoti tarixi. – Toshkent: 2012.
5. Boltaev H. O'zbek ta'limi rivoji tarixi. – Toshkent: 1999.
6. Avloniy A. Turkiy guliston yo xulq. – Toshkent: 1913.
7. Fitrat A. Rahbari najot. – Istanbul: 1910.
8. Aminov B. Buxoro jadidchiligi. – Toshkent: 2010.